

NORIN TUMAN ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI VA ULARNING O'RGANILISH DARAJASI

Nodirbek Hursanaliyev

Namangan Viloyati Tarixi va Madaniyati Davlat Muzeyi
ilmiy xodimi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali Namangan viloyati Norin tumanida joylashgan arxeologik yodgorliklarning geografik joylashuvi, arxeologik tavsifi va o'rganilishi bilan bog'liq bo'lgan fikr mulohazalar ketirib o'tilgan. Bundan tashqari bugungi kunda arxeologik yodgorlikni o'rganish orqali hududdagi antropologik landshaflarning shakllanish jarayonida o'troq hayotning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Norin, buloqlimozor, landshaft, arxeologiya, shaydon, go'dakmozor, shurf, yorg'uchoq.

Norin tumani Namangan viloyatining janubiy sharqiy qismida joylashgan bo'lib, 1926 yil 29 sentyabrda tashkil etilgan, 1962-1973 yillarda va 1988-89 yillarda Uchqo'rg'on tumani tarkibida bo'lgan. Tumanning bunday nomlanishiga o'sha hududdagi Norin daryosi asos bo'lgan. Shuningdek, bu so'z asrlar davomida boshqa narsalarga nisbatan ham qo'llanilib kelinganini qayd etish joiz. Masalan, Norin daryosi bo'yida dastlab kapa (chayla) qurib yashagan odamlarning qishlog'i Norinkapa deb atalgan. Qirg'iziston Respublikasida ham Norin shahri, Norin viloyati hamda shu nom bilan ataluvchi soylik, Tyanshan tog'ida esa Norintov tizmasi mavjud. Qirg'iz tilida narin so'zi o'zbek tilidagi norin taomini va beshbarmoq nomli taom nomini bildiradi.

O'zbek xalqining, xususan, Toshkent shahri va viloyati aholisining eng tansiq-go'sht va xamirdan tayyorlanadigan taomlaridan biri ham norin deb ataladi. Bundan tashqari, tilimizda Norinbek, Norinxon, Norinniso, Noringul kabi ismlar ham bor.

Ammo yuqoridagilarni bir-biriga bog'laydigan ko'zga ko'rinmas zanjir mavjud. Bu — norin so'zining hozirgi turkiy tillarda saqlanmagan, lekin qadimda mavjud bo'lgan ma'nosidir. Hozirgi mo'g'ul tilida nariyn so'zi bor. Qozoq tili geografik atamalarini tadqiq qilgan G. Konkashpaev ham mo'g'ul tilida narin, nariyn so'zining mavjudligini e'tiborga olib, norin so'zi mo'g'ulchadan olingan deb yozadi. Ammo o'zbek, qirg'iz, qozoq va boshqa turkiy xalqlar yashaydigan hududda mavjud bo'lgan Norin daryosining nomini mo'g'ullar qo'ygan yoki bu jumla mo'g'ul tilidan kirib kelgan deyish na ilmiy va na lisoniy jihatdan asosga ega emas. Nariyn — nozik, yupqa, ingichka, tor, siqiq, tang, laziz, go'zal, latif, yaxshi degan ma'nolarni bildiradi. Bu so'z

buryat, yoqut tilida ham uchraydi. Tungus-manjur tillaridagi narhun soʻzi nafis, ingichka tovush maʼnosini anglatadi. Koʻrinib turibdiki, daryo nomi bu soʻzning tor, siqiq maʼnosidan yuzaga kelgan.

Qirgʻiz olimlari B. Yunusaliyev va S. Qudaybergenovlar ham norin soʻzining “tor, kambar” maʼnolari borligini qayd qilishgan. S. Qorayev norin soʻzini etnonim hisoblab, oʻzbeklarning laqay, yuz qabilalari, shunidek Fargʻona qipchoqlari tarkibida norin urugʻi borligini taʼkidlagan. E. M. Murzayev esa norin – “serquyosh, oftobroʻy” degan maʼnoni anglatadi deydi. Norin eng qadimiy taomlardan hisoblanib, oʻtmishda chorvador qabilalar oʻrtasida keng tarqalgan.

Norin tumani hududida joylashgan tarixiy-madaniy, arxeologik yodgorliklarni oʻrganish oʻzining dolzarbligini yoʻqotgani yoʻq. Hududda mavjud koʻplab yodgorliklar jiddiy zarar koʻrgan yoki deyarli olimlar tomonidan oʻrganilmagan. Ayniqsa, arxeologik tadqiqotlarning koʻlami yuqori darajaga chiqmagan. Zamonaviy innovatsion uslublar bilan Uchtepa II yodgorligida “Ochiq osmon ostida” muzey tashkil etilganiga qaramay, qolgan yodgorliklar boʻyicha aniq maʼlumotlar shakllantirilmagan. Ushbu maqola orqali Norin tumani hududida roʻyxatga olingan arxeologik yodgorliklar haqida maʼlumot berib oʻtamiz.

Uchtepa I Uchtepa qishlogʻi hududida joylashgan arxeologik yodgorlik majmuasining biri hisoblanadi. Namangan-Haqqulobod avtomagistral yoʻlining chap tomonida joylashgan. Mahalliy aholi buloqqa nisbat berib “buloqmozorbuvam” deb ataydilar. Yodgorlikning er maydoni 0. 25 gektardan iborat. 1960-yilda A. Asqarov, 1980-yilda arxeolog M. Isomiddinov va 2005-yilda A. Anorboyev, Sh. Nasriddinov, B. Roʻzinovlar tomonidan oʻrganilgan. Akademik Ahmadali Asqarov uncha katta boʻlmagan shurf ochib oʻrgangan va oʻzining bu tepalik toʻgʻrisidagi ilmiy qarashlarini bayon qilgan¹. Yodgorlikning ostki qismida antik davr va yuza qismida oʻrta asr davriga mansub ashyolar mavjudligi aniqlangan.

Uchtepa II (Oʻrtatepa, Nuralibuvatepa) Uchtepa qishlogʻi hududida joylashgan arxeologik yodgorlik boʻlib, Eramizdan avvalgi III-II asrlar va Eramizning V-VII asrlariga mansub yodgorlikdir. Yer maydoni 0. 12 gektardan iborat. Namangan-Haqqulobod avtomagistral yoʻlining chap tomonida 50-60 metr ichkarida joylashgan. 1960-yilda A. Asqarov, 1980-yilda arxeolog M. Isomiddinov va 2005 yilda A. Anorboyev, Sh. Nasriddinov, B. Roʻzinovlar tomonidan qayta ilmiy kuzatuv ishlari oʻtkazildi². Uchtepa -1, 2, 3 umumiy holatda yagona majmuani tashkil etadi. Mazkur

¹ Rahmonov U. M. Uchtepa-Buloqmozor arxeologik yodgorliklar majmuasining kulolchilik mahsulotlari. Magistrlik dissertatsiyasi. – Namangan, 2021. – B. 61.

² Asqarov. Dastlabki izlanishlar Uchtepa Buloqmozor arxeologik majmuasida zardushtiylikka ishora. R. H. Sulaymenovning 80 yillik yubleyiga bagʻishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent. 2019

hududdan topilgan arxeologik ashyolar, tepaliklarning va atrofdagi joylarning oʻrni oʻtmishda qoʻrgʻon-shaharcha boʻlganligini isbotlab beradi.

Uchtepa III Uchtepa qishlogʻi hududida joylashgan arxeologik yodgorlik. Eramizdan avvalgi III-II va eramizning V-VI asrlariga mansub. Yer maydoni 0.05 gektar. Namangan Haqqulobod avtomagistral yoʻlining oʻng tomonida avtobekat orqasida joylashgan¹.

Qurbontepa (Qurbonbuvamozori)-Norin tumani Uchtepa Qishloq fuqarolar yigʻiniga qarashli Choʻja qishlogʻining shimoliy qismida joylashgan. Eramizdan avvalgi IV asr va eramizning X-XII asrlariga oid arxeologik yodgorlik. Yer maydoni 0.86 gektardan iboratdir. Shimoliy qismidan Norin daryosi oqib oʻtgan. 1960-yilda A. Asqarov, 1980-yilda arxeolog M. Isomiddinov va 2005-yilda A. Anorboyev, Sh. Nasriddinov, B. Roʻzinovlar tomonidan oʻrganilgan. Topilgan sopol ashyolar, yaʼni qizil angobli sopollar eramizdan avvalgi I va eramizning IV asrlariga mansubdir. Oʻrta asrlarga oid sopollar ham mavjud.

Shoʻrtepa gʻishttepa-Norin tuman Norin kapa QFY, Oʻlmas mahallasi hududida joylashgan. Yer maydoni 0,36 gektardan iborat boʻlgan Antik va oʻrta asrlarga oid arxeologik yodgorlik. 1960-yilda A. Asqarov, 1980-yilda arxeolog M. Isomiddinov va 2005-yilda A. Anorboyev, Sh. Nasriddinov, B. Roʻzinovlar tomonidan oʻrganilgan.

Xoʻjaobodtepa- Norin tuman Xoʻjaobod qishlogʻi Joʻragulzor mahallasi Katta Andijon kanalidan 300 metr gʻarbda, Namangan – Haqqulobod avtomagistral yoʻlidan 300-350 metr shimolda joylashgan bu yodgorlik antik davr yodgorligidir. Yer maydoni 0,22 gektardan iborat. Mahalliy aholi Hoʻjaobodtepa deb, baʼzi maʼlumotlarda “Otaboytepa” deb nomlanadi. Yodgorlik asosan doira shaklidan iborat boʻlib, yodgorlikning gʻarbiy qismidan zakan suvi yuvib oʻtadi. Yodgorlik doira shaklida boʻlib, taxminan 30 metrlik diametrdan iborat, balandligi 5-5,5 metrlar atrofida. Atrofi oʻzlashtirilgan. 1980-yilda M. X. Isomiddinov va 2005-yilda A. Anorboyev, Sh. Nasriddinov, B. Roʻzinovlar tomonidan oʻrganilgan.

Shayitmozortepa (kichikshaydon) Norin tuman Margʻuzor qishloq fuqarolar yigʻini Dalatoʻpi qishlogʻi hududida joylashgan. Antik va oʻrta asrlarga mansub yodgorlik. Yodgorlikning umumiy hududi 0.87 gektardan iborat. 1980-yillarda M. Isomiddinov tomonidan oʻrganilgan. Shayitmozortepa mahalliy aholi tomonidan kichik “Shaydon” deb nomlanadi. Yodgorlikning shimoliy qismini shirkat xoʻjaliklari tomonidan oldindan paxta quritish uchun tekislab asfaltlab yuborilgan. Lekin yodgorlikning devor qoldiqlari qisman saqlanib qolgan. Yodgorlikning bir qismi

¹ Rahmonov U. M. Uchtepa-Buloqmozor arxeologik yodgorliklar majmuasining kulolchilik mahsulotlari. Magistrlik dissertatsiyasi. – Namangan, 2021. – B. 61.

muqaddas qadamjoga aylantirilgan. Tepalik Qo'rg'oncha suv olish inshootining 250 metr shimolida joylashgan.

Oltiqulochbuvatepa (go'dakmazor)-Norin tumani, To'da qishlog'i Oltiqulochbuva tepa mahallasi hududida joylashgan. Yer maydoni 0.19 gektardan iborat. 1980-yilda arxeolog M. Isomiddinov va 2005-yilda A. Anorboyev, Sh. Nasriddinov, B. Ro'zinovlar tomonidan o'rganilib davrlashtirilgan. Bu qo'sh (o'rkachli) yarusli tepalik g'arbiy tomonda baland vishkadan iborat yodgorlik. Yodgorlik asosan uchburchak shaklda saqlanib qolgan¹.

Shaydon tepa-Norin tumani Marg'uzor qishlog'i Mozor mahallasi hududida joylashgan. Yer maydoni 0,72 gektardan iborat Antik davri arxeologik yodgorligi. Mahalliy aholi "Shaydonazizbuva", Shaydon aziz nomlari bilan ataydilar. Tepalik ikki yarusdan iborat bo'lib, janubiy qismi ancha baland shimoliy qismi esa ayvonni eslatuvchi pastlik holatida. Yodgorlikda juda ham ko'plab arxeologiya fani uchun materiallar olish mumkin. Asosan qizil, qora va oq rangli sopol angob parchalari, tegirmon tosh, tosh yorguchoq va shisha mo'nchoqni ham uchratish mumkin.

Mushukteshgantepa-Norin tuman Tegirmonboshi qishlog'ida joylashgan bo'lib, er maydoni 0,35-40 gektardan iborat. Antik va o'rta asrlarga oid yodgorlik. 5-6 metr baland. Shimoliy tarafdin aholi punktiga bog'langan. 1980-yillarda M. X. Isomiddinov tekshirgan. 2005-yilda O'zR. FA. arxeologiya instituti xodimlari A. Anorboyev, Sh. Nasriddinov, A. Ismonov va B. Ro'zinovlar tomonidan ilmiy ekspeditsiya tashkil etilib holati, davri aniqlandi². Ikki yarusdan iborat tepalik deyarli kvadrat shaklidan iborat. Yodgorlikdan kabriston maqsadida foydalanishmoqda. So'nggi antik va ilk o'rta asrlarga mansub bo'lgan qa'la qoldig'idir.

Yaydoqtepa (Manazarbuvatepa)-Norin tuman Katta Yaydoq mahallasi Namangan-Haqqulobod katta avtomobil yo'lidan chapda 300 metrlar shimolda Jakbarali Meliboyev ko'chasida joylashgan. Yodgorlik er maydoning 0.07 gektari saqlanib qolgan. IV-VII asrlarga mansub bu yodgorlik. 1980-yilda M. X. Isomiddinov tomonidan o'rganilgan. 2005-yil kuzida arxeologiya instituti hodimlari tomonidan bu yodgorlik kadastr maqsadida qayta ilmiy tekshirish ishlari olib borildi.

Qozoqovultepa- Norin tuman Qozoqovul mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan. Yer maydoni 0.77 gektardan iborat. Antik va ilk o'rta asrlarga mansub arxeologik yodgorlik. 1980-yilda arxeolog M. Isomiddinov va 2005-yilda A. Anorboyev, Sh. Nasriddinov, B. Ro'zinovlar tomonidan o'rganilib davrlashtirilgan.

¹ Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Қосимов А. Наманган вилояти маданий мероси. -Наманган 2013

² Абдуллаев М. Г. "Бобурнома"да Фарғона водийси топонимикаси // Буюк ипак йўли ва Фарғона водийси. Республика илмий-амалий андуман материаллари. –Т. , 2004. Б. 194-200. 10

Namangan-Haqqulobod avtomagistral yo'lining o'ng betida joylashgan. Yodgorlik kvadrat shaklidagi uch yarusli qishloq qoldig'idan iborat.

Sirmoqtepa- Sho'ro mahalla fuqarolar yig'iniga qarashli Baxriobod mahallasi hududida joylashgan, ilk o'rta asrlarga mansub arxeologik yodgorlik. Yer maydoni 0.75 gektardan iborat bo'lib, Namangan-Haqqulobod avtomobil trassasining chap tomonidan 100 metr shimolida paxta dalasi o'rtasida joylashgan. Ikki yarusdan iborat shakldagi uzunchoq doira shaklida bo'lib, g'arbiy tomonida doira shaklida balandligi bor.

Qo'rg'onchatepa Norin tuman To'da qishlog'ining shimoliy qismida Qo'sh chek fuqarolar yig'ini hududida joylashgan. Yodgorlikning umumiy muhofaza hududi 0.18 gektar. Yodgorlik uchburchak shaklida, deyarli ikki yarusdan iborat bo'lib, shimoliy tomonida ayvoni va baland doira shaklida. To'da QFY Yuqori So'zakovul (Boymahalla) qadimgi mingboshilar shu erda yashaganlar. Yonidan qadimgi Alman arik okib o'tgan¹. Alman buva degan bog'bon o'tgan ekan shuning uchun erlik axoli bu tepalikni Almanitepa deb atashadi.

G'ishtmozortepa yodgorligi Norin tuman Oq oltin jamoa xo'jaligi Marg'uzor qishlog'i Dalato'pi mahallasi hududida joylashgan. Yodgorlikning umumiy muhofaza hududi 0.26 gektardan iborat. Hozirgi kunda bu yodgorlik ustiga bir qabr daxma va unga taqab esa dala shiyponi kurilgan. Tepalik usti asfaltlangan. Tepalikning yukori katlamlaridan o'rta asrlarga taalluqli pishiq g'isht qoldiklari topildi. Hozirgi kunda bu erga turli joylardan ziyoratga odamlar kelib ehson kilib, chiroq yoqadigan is chiqaradigan muqaddas joyga aylantirgan. 1980-yillarda arxeolog M. Isomiddinov tomonidan o'rganilgan va uning tahminlaricha eramizning X-XI asrlarga taalluqli yodgorlik ekanligi aytib o'tiladi.

Marg'izortepa Norin tumani "Shoxidon" MFY da joylashgan o'rta asrlarga mansub arxeologiya yodgorligi. Umumiy er maydoniy maydoni 0,508 ga tashkil etadi. Ushbu obyekt yon-atrofni kuzatish va shu hududda yashayotgan aholiga turli voqealarni xabarini berib turuvchi va boshqa hududlarga ham xabar beruvchi, biror dushman xafvi haqida xabar beruvchi aloqa vositasini bajargan.

"Bo'ritepa antik davriga oid arxeologiya yodgorlik. Norin tumani, "Bo'ritepa" MFY da joylashgan. Obyektning egallagan umumiy maydoni 10831 kv. m. ni tashkil etadi. Bu tepalik atrofida sopol idishlar, yorg'uchoq toshlarni ko'rishimiz mumkin. Mahalliy aholining aytishicha tepalik oldin baland bo'lib ancha cho'kkanligini aytishdi. Tepalikda mahalliy aholi kelib o'z udumlarini o'tkazib is chiqarib turishadi. Yodgorlik himoya xududidagi tutzor va atrofda o'tqazilgan katta ariq va hovuzdan turli

¹ Rahmonov U. M. Uchtepa-Buloqmozor arxeologik yodgorliklar majmuasining kulolchilik mahsulotlari. Magistrlik dissertatsiyasi. – Namangan, 2021. – B. 61. 12

davrlarga oid sopol va g'isht bo'laklarini topish mumkin. Yodgorlikning yuza qismidan antik davrga oid rangli angoblangan idish gardishlarining bo'laklari 13 topilgan. Bu topilmalar eramizdan avvalgi III-II va eramizning X-XI asrlariga taaluqli.

“Eskitepa” arxeologiya yodgorligi- Namangan viloyati, Norin tumani “Shoxidon” MFY joylashgan. Tarixiylik davri Antik davriga mansub. Ushbu ob'yekt yon-atrofni kuzatish va o'z davrida ogohlantirib xabardor etish va boshqa hududlarga ham xabar beruvchi, biror dushman xavfi haqida xabar beruvchi aloqa vositasini bajargan.

Qo'rg'ontepa arxeologiya yodgorligi bo'lib, tarixiylik antik davriga oid. Norin tumani, Shoxidon MFY, Paxtazor ko'chasida joylashgan. Ob'yektning egallagan umumiy maydoni 21400 kv. m. ni tashkil etadi. 1968-78 yillarda “Yodgorliklarni saqlash va muhofaza etish” jamiyati xodimlari, arxeolog va tarixchi olimlar tomonidan tuman hududi o'rganilib, madaniy qatlam bor va qadimiy buyumlar topilgan joylar, arxitektura yodgorliklari ro'yxati shakllantirilgan. Yodgorlikning asosan janubiy va g'arbiy devorlari shaklida minora qoldiqlari aniq bilinib turibdi. Sharqiy devori esa anchagina buzilgan. Ularni uchta dorvoza o'rnolari aniqlandi. Ularning biri sharqiy devorda, ikkinchisi shimoliy ularning deyarli markazida balandligini 10 metrli shahar arki joylashganligi aniqlangan. Arkning asosiy qismida uchta kirish yo'lakchasi ham borligi aniqlandi. Ark yuqoriga ko'tarilgan bo'lib oldini boshqa qismidan ajratib turadi. Shahar xududida ikkita maydoncha aniq ko'rinadi ularning biri shimoliy g'arb qisimida, ya'ni 14 shimoliy g'arb darvozasi atrofida, ikkinchisi shaharning sharqiy qismida sharqiy devorga parallel ravishda cho'zilib ketgan. Bu maydoncha o'rtasida uncha katta bo'lmagan yashash joylari joylashgan bo'lib, ular bir biriga tepaliklar orqali birlashgan. Shaharning qolgan qismlarida odatdagi yashash joylari ho'jalik joylari bo'lgan. Bu joylarning qoldiqlari uncha katta bo'lmagan tekkis balandliklardan iborat. Shahar hududida antik va o'rta asrlarga oid juda ko'plab sopol siniqlari uchraydi. Demak ular antik va o'rta asrlarga oid. Hozirda shaharning deyarli barcha qismidan qabriston sifatida foydalanib kelinmoqda.

Quyultepa aholi punkti Xaqqulobod shahrining chekkasida joylashgan. Bu kvadrat, asosan ikki qavatli aholi punkti bo'lib, markazida balandligi taxminan 18 m bo'lgan dumaloq minorasi bor. Yodgorlikning shimoliy yon bag'irida chuqurligi 10 m dan ortiq bo'lgan stratigrafik chuqur (shurf)dan milodiy birinchi asrga oid sopol idishlar to'plami aniqlangan¹. Topilgan topilmalar orasida qizil qirrali o'yilgan naqshli sopol buyumlar ko'proq bo'lib, ular Kugay aholi punktiga xosligi aniqlangan.

¹ Исомиддинов М. Археологические открытия 1980 года – М., “Наука” 1981г. 2с.

Ushbu arxeologik yodgorliklardan faqatgina bittasi (Uchtepa II) arxeolog olimlar tomonidan to'liq o'rganilib, bugungi kunda "ochiq osmon ostida"gi arxeologik muzeyga aylantirilmoqda. Afsuski qolgan arxeologik yodgorliklarning o'rganilish darajasi juda past va saqlanib qolinishi juda ham og'ir ahvolda. Yodgorliklarning eng asosiylari 1980-yillarda M. Isomiddinov tomonidan o'rganilgan va 2005-yilda qayta ro'yxatdan o'tkazilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Асқаров Қ. Учтепа Булоқмозор археологик ёдгорлиги. "Водийнома". - Андижон 2019, № 2 (12)
2. Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Қосимов А. Наманган вилояти маданий мероси. -Наманган 2013
3. Қ. Асқаров. Даствлабки изланишлар Учтепа Булоқмозор археологик мажмуасида зардуштийликка ишора. Р. Ҳ. Сулайменовнинг 80 йиллик юблейига бағишланган халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент. 2019
4. Раҳмонов У. М. Учтепа-Булоқмозор археологик ёдгорликлар мажмуасининг кулолчилик маҳсулотлари. Магистрлик диссертатсияси. – Наманган, 2021. – Б. 61.
5. Абдуллаев М. Г. "Бобурнома"да Фарғона водийси топонимикаси // Буюк ипак йўли ва Фарғона водийси. Республика илмий-амалий андуман материаллари. –Т. 2004.
6. Исомиддинов М. Археологические открытия 1980 года – М., "Наука" 1981г.